

ZIYO UL- HAQ DAVRIDA POKISTONDA XOTIN-QIZLARGA NISBATAN MADANIY TO‘SIQLAR

To‘xtasinova Shaxnoza Ibroximovna

Sarboon universiteti katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Pokiston jamiyatida ayollarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va huquqiy holatini belgilab beruvchi omillar orasida madaniy-an‘anaviy me‘yorlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu me‘yorlar tarixan mahalliy urf-odatlar, diniy talqinlar, mustamlaka davrida shakllangan ijtimoiy institutlar hamda patriarxal ijtimoiy tuzilma bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Natijada ayollarning ijtimoiy faolligi, jamoat hayotidagi ishtiroki va davlat tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy himoya mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari jiddiy darajada cheklangan.

Kalit so‘zlar: *Islomlashtirish, Ziyu ul-Haq, Hudud qonunlari, sharaf (honour)*

ABSTRACT

Cultural and traditional norms play a significant role in determining the role and legal status of women in Pakistani society. These norms have historically developed inextricably linked to local customs, religious interpretations, colonial-era social institutions, and a patriarchal social structure. As a result, women's social activity, participation in public life, and access to state-provided social protection mechanisms are severely limited.

Keywords: *Islamization, Ziya ul-Haq, Territory laws, honor.*

АННОТАЦИЯ

Культурные и традиционные нормы играют значительную роль в определении роли и правового статуса женщин в пакистанском обществе. Исторически эти нормы развивались неразрывно, в сочетании с местными обычаями, религиозными интерпретациями, социальными институтами колониальной эпохи и патриархальной социальной структурой. В результате социальная активность женщин, их участие в общественной жизни и доступ к государственным механизмам социальной защиты серьезно ограничены.

Ключевые слова: *исламизация, Зия уль-Хак, территориальные законы, честь*

KIRISH

Pokiston hududida ijtimoiy munosabatlarning an‘anaviy modeli, avvalo, erkaklar ustuvorligiga asoslangan patriarxal tizim shaklida namoyon bo‘ladi. Bunday tizimda ayol, asosan, oilaviy makon bilan cheklanib, uning ijtimoiy vazifalari ona va

xotinlik rollari doirasida talqin qilinadi. Diniy va madaniy diskurslarda ayolning “iffat”, “itoatkorlik” va “uyga bog‘liqlik” kabi sifatlar bilan tavsiflanishi ijtimoiy ongda mustahkam o‘rnashib qolga. Bu holat, ayniqsa, qishloq hududlarida va an’anaviy ijtimoiy munosabatlar ustuvor bo‘lgan viloyatlarda yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi.

1977-yilda general Muhammad Ziyo ul-Haq hokimiyatga kelishi bilan jamiyatdagi madaniy-diniy me’yorlar davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. “Islomlashtirish siyosati” doirasida ayollarning ijtimoiy xatti-harakatlariga nisbatan qat’iy talablar joriy etildi, bu esa madaniy to‘siqlarning huquqiy asoslar bilan mustahkamlanishiga olib keldi. Xususan, ayollarning jamoat joylaridagi erkinligi, mehnat faoliyatidagi ishtiroki va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlari cheklana boshladi. Natijada madaniy stereotiplar nafaqat ijtimoiy ongda, balki qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotida ham o‘z aksini topdi.

Ayollarga nisbatan madaniy to‘siqlarning yana bir muhim jihati – bu “sharaf” (honour) tushunchasining ijtimoiy munosabatlarda markaziy o‘rin egallashidir. “Sharaf” bilan bog‘liq qarashlar ayol xulq-atvorini doimiy nazorat ostida ushlab oqlovchi omil sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, bunday qarashlar ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, majburiy nikoh va ijtimoiy cheklovlarning madaniy jihatdan “asoslanishi”ga sabab bo‘lgan. Bu esa ayollarning davlat tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy himoya mexanizmlariga murojaat qilishini ham murakkablashtirgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shuningdek, ta’lim darajasining pastligi va ayollarning huquqiy savodxonligi yetarli emasligi madaniy to‘siqlarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan omillardan biridir. Ayniqsa, 1980-1990-yillarda qiz bolalarning ta’limdan chetda qolishi keng tarqalgan holat bo‘lib, bu holat keyinchalik ayollarning mehnat bozorida va ijtimoiy himoya tizimlarida faol ishtirok etishiga jiddiy to‘sqinlik qilgan. Ta’limdan uzoqlik ayolni iqtisodiy jihatdan qaram holatga tushirib, uni an’anaviy ijtimoiy rollar doirasida ushlab turuvchi mexanizmga aylangan.

Umuman olganda, Pokistonda ayollarga nisbatan mavjud madaniy to‘siqlar ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini cheklabgina qolmay, balki davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish jarayonida ham muhim muammolarni keltirib chiqargan. Ushbu to‘siqlar ayollarning ijtimoiy himoya tizimlariga kirib borishini murakkablashtirib, gender tengsizligini saqlab qoluvchi omil sifatida namoyon bo‘lgan.

Pokistonda ayollarga nisbatan shakllangan madaniy stereotiplar nafaqat ularning kundalik hayotini, balki davlat va nodavlat ijtimoiy himoya institutlari bilan o‘zaro

munosabatlarini ham keskin cheklab kelgan. Ijtimoiy himoya tizimlari, garchi rasmiy jihatdan gender neytral tarzda ishlab chiqilgan bo'lsa-da, amaliyotda patriarxal madaniy me'yorlar ta'siri ostida faoliyat yuritgan. Natijada ayollarning mazkur institutlardan foydalanish darajasi erkaklarga nisbatan sezilarli darajada past bo'lib qolgan.

Madaniy stereotiplarning eng muhim jihatlaridan biri - ayolning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan erkakka qaram shaxs sifatida talqin qilinishidir. An'anaviy qarashlarga ko'ra, ayolning ijtimoiy himoyaga bo'lgan ehtiyoji uning otasi, eri yoki boshqa erkak qarindoshlari orqali qondirilishi lozim, degan tushuncha keng tarqalgan. Bunday yondashuv ayollarning mustaqil ravishda davlat organlariga murojaat qilishini "nomaqbul" holat sifatida baholab, ularni huquqiy va ijtimoiy himoyadan chetda qoldirgan.

Ijtimoiy himoya sohasida faoliyat yurituvchi muassasalarda ham ushbu madaniy qarashlar muhim rol o'ynagan. Tadqiqotlarga ko'ra, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash va mehnatni muhofaza qilish bilan shug'ullanuvchi idoralarda qaror qabul qiluvchi lavozimlarning aksariyati erkaklar tomonidan egallangan bo'lib, bu ayollarga xos muammolarning ikkilamchi darajaga tushib qolishiga olib kelgan. Natijada ayollarning zo'ravonlik, majburiy mehnat yoki oilaviy bosim bilan bog'liq murojaatlari yetarlicha e'tiborga olinmagan.

Madaniy to'siqlarning yana bir muhim jihati – ayollarning ijtimoiy muammolarini oshkora muhokama qilishga nisbatan mavjud ijtimoiy bosimdir. Pokiston jamiyatida oilaviy masalalarni "xususiy makon" doirasida saqlash zarur, degan qarash keng tarqalgan bo'lib, bu holat ayollarning zo'ravonlik yoki ijtimoiy tengsizlik bilan bog'liq muammolarini rasmiy idoralarga yetkazishiga to'sqinlik qilgan. Ayniqsa, qishloq hududlarida ayollarning sud yoki ijtimoiy himoya muassasalariga murojaat qilishi oilaviy "sharaf"ga putur yetkazuvchi omil sifatida talqin etilgan.

1977-2007-yillar oralig'ida amalga oshirilgan ayrim ijtimoiy dasturlar ayollarning ahvolini yaxshilashni maqsad qilgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi ko'p hollarda madaniy qarshiliklar sababli past bo'lib qolgan. Xususan, ayollar uchun mo'ljallangan ijtimoiy yordam dasturlari erkaklar tomonidan nazorat qilinib, ayollarning real ehtiyojlarini to'liq qamrab ololmagan holatlar qayd etilgan. Bu esa rasmiy siyosat bilan ijtimoiy amaliyot o'rtasidagi tafovutni yanada kuchaytirgan.

Shuningdek, diniy va madaniy talqinlarning o'zaro uyg'unlashuvi ayollarning ijtimoiy himoyaga bo'lgan huquqlarini cheklashda muhim ideologik asos vazifasini bajargan. Ayrim diniy yetakchilar tomonidan ilgari surilgan konservativ qarashlar ayollarning ijtimoiy faolligini cheklashni "ijtimoiy barqarorlik" omili sifatida

ko'rsatgan. Bu esa ayollarning huquqlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlarga nisbatan jamiyatda ehtiyotkorlik, ba'zan esa ochiq qarshilik kayfiyatlarini shakllantirgan.

Natijada madaniy stereotiplar ayollarning ijtimoiy himoya institutlariga kirib borishini murakkablashtirib, ularning huquqiy va ijtimoiy imkoniyatlarini cheklovchi tizimli omilga aylangan. Ushbu holat ayollar masalasining faqat huquqiy yoki iqtisodiy muammo emas, balki chuqur ildiz otgan madaniy-ijtimoiy muammo ekanligini ko'rsatadi.

Pokistonda ayollarga nisbatan mavjud madaniy to'siqlar eng keskin ko'rinishini gender asosidagi zo'ravonlik muammosi orqali namoyon etadi. Zo'ravonlikning oilaviy, jamoaviy va institutsional shakllari ijtimoiy hayotda keng tarqalgan bo'lib, ularning ildizi chuqur patriarxal madaniy qarashlarga borib taqaladi. Ushbu qarashlar ayollarga nisbatan kuch ishlatishni ayrim hollarda "intizomiy chora" yoki "oilaviy masala" sifatida talqin etib, uni ijtimoiy jihatdan oqlovchi muhitni shakllantirgan.

Madaniy an'analarda erkakning oila boshlig'i sifatidagi mutlaq ustuvor mavqei ayol tanasi va xulq-atvori ustidan nazoratni qonuniylashtiruvchi omil sifatida qaralgan. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, oilaviy zo'ravonlikning keng tarqalishiga qaramay, ko'plab ayollar bunday holatlarni rasmiy idoralarga ma'lum qilishdan tiyilgan, chunki bu ularning ijtimoiy obro'siga putur yetkazishi, oiladan ajralib qolish xavfini kuchaytirishi mumkin edi. Natijada zo'ravonlik holatlari yashirin xarakter kasb etib, ijtimoiy himoya mexanizmlari samarali ishlamay qolgan.

1977-1988-yillardagi Ziyo ul-Haq davrida joriy etilgan huquqiy normalar, xususan, Hudud qonunlari ayollarning huquqiy himoyasini yanada murakkablashtirdi. Ushbu qonunlar doirasida zo'ravonlik va jinsiy jinoyatlar bilan bog'liq ishlarni isbotlash mexanizmlari ayollar foydasiga ishlamagan, aksincha, ularni ikkilamchi ayblanuvchi holatiga tushirib qo'ygan. Bu holat ayollarning sud va huquq-tartibot organlariga murojaat qilishdan qo'rquvini kuchaytirib, madaniy to'siqlarni huquqiy darajada mustahkamlagan.

Zo'ravonlikning jamoaviy shakllari, xususan, "sharaf nomidan qotillik" holatlari ham madaniy to'siqlarning eng og'ir oqibatlaridan biri hisoblanadi. Bunday holatlar ko'pincha mahalliy an'analar va qabila urf-odatlarini bilan oqlanib, davlat aralashuvi minimal darajada bo'lib qolgan. Natijada ayollar nafaqat jismoniy xavfsizlikdan, balki ijtimoiy himoya huquqidan ham mahrum bo'lgan.

Ijtimoiy himoya institutlari zo'ravonlikka uchragan ayollar uchun muhim tayanch bo'lishi lozim edi. Biroq madaniy cheklovlar ushbu institutlarning samarali ishlashiga jiddiy to'sqinlik qilgan. Masalan, boshpana (shelter)lar va ijtimoiy rehabilitatsiya markazlariga murojaat qilgan ayollar ko'pincha jamiyat tomonidan

“normadan chetga chiqqan” shaxslar sifatida qabul qilingan. Bu esa ularning ijtimoiy reintegratsiyasini qiyinlashtirib, uzoq muddatli ijtimoiy himoya mexanizmlarining samaradorligini pasaytirgan.

Shuningdek, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik masalasi ijtimoiy siyosat darajasida yetarlicha ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmagan. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan ayrim dasturlar asosan huquqiy islohotlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, madaniy stereotiplarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks yondashuv yetishmagan. Bu holat ayollarning ijtimoiy himoyasini ta‘minlash masalasida institutsional va madaniy omillar o‘rtasidagi nomutanosiblikni yanada kuchaytirgan.

Umuman olganda, gender zo‘ravonligi Pokistonda ayollarning ijtimoiy himoyaga bo‘lgan ehtiyojini keskin oshirgan bo‘lsa-da, madaniy to‘siqlar ushbu ehtiyojni qondirish mexanizmlarini cheklab kelgan. Natijada ayollar masalasi ijtimoiy siyosatning markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lish o‘rniga, ko‘pincha ikkilamchi ahamiyatga ega muammo sifatida qaralgan.

Pokistonda ayollarning mehnat munosabatlaridagi ishtiroki madaniy to‘siqlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu holat ularning ijtimoiy himoya tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarini ham belgilab bergan. An‘anaviy qarashlarga ko‘ra, ayollarning asosiy vazifasi oilaviy makonda bajariladigan reproduktiv mehnat bilan cheklanib, daromad keltiruvchi faoliyat ikkilamchi yoki hatto nomaqbul holat sifatida talqin qilingan. Natijada ayollarning rasmiy mehnat bozoriga kirib borishi tizimli ravishda cheklangan.

Ayollarning mehnat faoliyatida norasmiy sektor ustunlik qilgan. Qishloq xo‘jaligi, uy mehnati, to‘qimachilik va xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lgan ayollar, odatda, rasmiy mehnat shartnomalarisiz faoliyat yuritgan. Tadqiqotlarga ko‘ra, norasmiy bandlik ayollarni pensiya ta‘minoti, sog‘liqni saqlash sug‘urtasi va mehnatni muhofaza qilish kabi ijtimoiy himoya mexanizmlaridan avtomatik tarzda chetda qoldirgan. Bu holat madaniy to‘siqlarning iqtisodiy va institutsional darajada mustahkamlanishiga olib kelgan.

Madaniy stereotiplar ish beruvchilar darajasida ham muhim rol o‘ynagan. Ayollarni “kam unumli”, “vaqtinchalik” yoki “oilaviy majburiyatlar bilan band” ishchi kuchi sifatida baholash ularning rasmiy bandlikka qabul qilinishini cheklagan. Ayniqsa, 1980–1990-yillarda sanoatlashuv jarayonlari kuchayganiga qaramay, ayollarning ishlab chiqarish sohasidagi ulushi past darajada qolgan. Bu esa ijtimoiy himoya tizimlari bilan qamrab olinmagan ayollar sonining ortishiga olib kelgan.

Davlat tomonidan joriy etilgan mehnat va ijtimoiy himoya qonunchiligi nazariy jihatdan ayollar huquqlarini himoya qilishni ko‘zda tutgan bo‘lsa-da, amaliyotda ushbu qonunlarning ijrosi madaniy omillar ta‘sirida sust kechgan. Masalan, mehnat

inspeksiyasi organlari ayollar mehnati keng tarqalgan norasmiy sektorni nazorat qilishda yetarlicha faol bo'lmagan. Natijada ayollarning mehnat huquqlari va ijtimoiy kafolatlari ko'pincha qog'ozda qolib ketgan.

Shuningdek, ayollarning kasaba uyushmalaridagi ishtiroki ham madaniy cheklovlar sababli cheklangan. Patriarxal muhitda jamoaviy harakatlarda faol qatnashish ayollar uchun ijtimoiy jihatdan ma'qullanmagan holat sifatida qaralgan. Bu esa ayollarning o'z manfaatlarini institutsional darajada himoya qilish imkoniyatlarini keskin qisqartirgan. Natijada mehnat munosabatlarida gender tengsizligi ijtimoiy himoya tizimlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda madaniy me'yorlar ayollarning ruhiy salomatligi masalasida ham muhim to'siq bo'lib xizmat qilgan. Ruhiy zo'riqish, depressiya va zo'ravonlik oqibatida yuzaga keladigan psixologik muammolar ko'pincha inkor etilgan yoki "sabr qilish" orqali hal etilishi lozim bo'lgan holatlar sifatida baholangan. Bu esa ayollarning psixologik yordam xizmatlaridan foydalanishini cheklab, ijtimoiy himoya tizimlarining mazkur yo'nalishda rivojlanishini sekinlashtirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mumtaz, K., Shaheed, F. Women of Pakistan: Two steps forward, one step back? Lahore: Vanguard Books, 1987. – 25 p.
2. Weiss, A. M. The Consequences of state policies for women in Pakistan. In: Comparative politics, Vol. 25, No. 2, 1993. – 151p.
3. Ali, S. S. Gender and Human Rights in Islam and international Law. The Hague: Kluwer Law international, 2000. – 95 p .
4. Jalal, A. Democracy and authoritarianism in South Asia. Cambridge: Cambridge university press, 1995. – 180 p.
5. Shaheed, F. Women, state and politics in Pakistan. Lahore: Shirkat Gah, 1998. – 44 p.
6. Gazdar, H. Social protection in Pakistan: In the Midst of a paradigm shift? Karachi: Collective for social science research, 2009. – 30 p.
7. Human Rights Commission of Pakistan. State of Human Rights in Pakistan. Lahore: HRCP, 2002. – 176 p.
8. Welchman, L., Hossain, S. Honour: Crimes, Paradigms, and Violence against women. London: Zed Books, 2005. – 74 p.